

DANTE ALIGHIERINING ILOHIY KOMEDIYA ASARI.

*KIUT Samarqand filiali talabasi
Turaqulov Ilyos Haydar o'g'li
ilyosturaqulov 1@gmail.com
Ilmiy rahbar N.Zubaydova.*

Annotatsiya. Ushbu maqola Dante Alighierining “Ilohiy Komediya” asarining mazmuni va mohiyati tahlil qilinadi.Ilohiy Komediya asari o’rtasidagi Yevropasining eng yirik adabiy durdonalaridan biri bo’lib,unda inson ruhining najot sari yo’li aks ettiradi.Dante o’z asarida diniy e’tiqodlar,axloqiy tamoyillar va insoniyat uchun muhim bo’lgan manaviy qadriyatlarni yoritib beradi.Asar uch qismidan –“Do’zax”, ”A’rof”, va “Jannat”-iborat bo’lib,inson ruhining gunohdan najotgacha bo’lgan ruhiy sayohatini aks ettiradi.

Kalit so’zlari: Najot, jannat, do’zax, a’rof, e’tiqod, gunoh.

Dante Alighierining “Ilohiy Komediya” asari Yevropa adabiyotining eng ulug’ yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Bu uch qismidan iborat asar –“Do’zax”, ”A’rof”, va ”Jannat”-insonning manaviy sayohatini aks ettiradi.Bu asar italyan tilida yozilgan bo’lib,O’rtasidagi madaniyati va diniy qarashlari chuqur aks ettiradi.

Bu XIV asr boshlarida Italiyalik shoir Dante tomonidan yozilgan asar.Dastlab u faqat ‘Komediya”deb nomlangan,chunki u fojialardan farqli o’laroq baxtli tugagan. Dante Alighierining “Ilohiy Komediya” asarining birinchi bo’limi –“Do’zax”-bu qismda Dante insonning gunoh va jazo bilan bog’liq ruhiy va axloqiy holatni chuqur tasvirlaydi. Asarda Dante shoir Vergiliy rahbarligida do’zaxning to’qqiz doirasidan o’tadi va har bir doirada muayyan gunoh qilgan ruhlar jazolanayotganini kuzatadi.Bu safar gunohning tabiatini, uning oqibatlarini va ilohiy adolatning muqarrarligini tushunishga qaratilgan. Dante asarida do’zaxni katta voronka shaklida tasvirlaydi, uning markazi yerning tubida joylashgan. Har bir doira insoniyatning ma’lum bir gunohiga mos keladi va har bir gunohkor o’z gunohi uchun mos jazoni oladi. Birinchi daraja-Limbo: Bu yerda imonsiz, ammo gunohsiz insonlar joylashgan. Ular xudoning huzuridan mahrum bo’lsalarda,azoblanmaydilar. Misol uchun, qadimiy buyuk faylasuflar, jumladan Aristotel va Platon shu yerda. Ikkinci daraja-Shahvoniylig: Shahvoniylig orzulari uchun jazolanayotganlar doimiy ravishda kuchli bo’ron ichida qoladilar. Bu jazolar shahvoniylig his-tuyg’ularni ramziy ravishda aks ettiradi. Uchinchi daraja-Ochko’zlik: Ochko’zlar abadiy muzli yomg’ir ostida qolib, iflos balchiq ichida azob chekadilar. Keyingi darajalar: Har bir keyingi doira insoniyatning og’irroq gunohlariga mos keladi, masalan, xudbinlik, yolg’onchilik, xiyonat va shafqatsizlik. Eng pastki doirada esa eng og’ir gunoh xiyonat uchun jazolanuvchilar abadiy muzga

qotib qolgan holda tasvirlanadi. Dante har bir doirada gunohning oqibatlarini aniq va ramziy shaklda tasvirlaydi. Masalan, yolg' onchilarning tillari olov bilan qoplanadi, bu ularning hayotda aytgan yolg'onlariga javob bo'ladi. "Do'zax" qismida ilohiy adolatning muqarrarligi ko'rsatiladi. Har bir gunohkor o'z gunohiga mos jazoni oladi, bu orqali Dante Xudoning adolatini ta'kidlaydi. Dante o'zining bu sayohatini insonning gunohlari va zaifliklarini tan olish jarayoni sifatida tasvirlaydi. Vergiliy uning uchun nafaqat yo'l ko'rsatuvchi, balki aqidaviy anglash vositasidir. Dante asarida turli tarixiy va mifologik qahramonlar bilan uchrashadi. Ularning aksariyati o'z gunohlari sababli do'zaxda azoblanmoqda. Dante o'z asari orqali insoniyatga chuqur manaviy va axloqiy xabarni yetkazadi, har bir gunohning oqibati bor va har bir inson o'z qilmishlari uchun javobgardir. : "A'rof" qismi "Ilohiy Komediya" asarining ikkinchi bo'limidir va insonning gunohlardan tozalangan, tavba qilish va poklanish jarayonini aks ettiradi. "A'rof" so'zi lotincha "purga" (poklanish) va "torium" (joy) so'zlaridan olingan bo'lib, bu bo'lim jannatga kirish uchun tavba qilgan ruhlar uchun mo'ljallangan joyni tasvirlaydi. Do'zaxda jazolangan ruhlar o'zlarini poklab, Xudo huzuridga kirishga tayyorlanadilar. "A'rof"da ruhlar o'zlarini poklab, Xudo huzurida kirishga tayyorlanadilar. A'rof qismi do'zaxdan so'ng joylashgan va ruhlarning tavba qilish orqali tozalanishi kerak bo'lган joydir. Bu joyda ryhlar o'zining to'g'ri yo'lga qaytishi uchun poklanishadi, shuningdek, ularning jazolari ham individual va gunohning og'irligiga qarab farqlanadi. Dante va uning yo'l ko'rsatuvchisi Virgiliy A'rofdan jannatga borish uchun ruhlarning ruhiy tozalanish jarayonini kuzatadilar. A'rofdagi ruhlar quyidagi fazolarga bo'lingan. Tavba qilganlar: A'rofda ruhlar o'z gunohlarini tan olishadi va Xudoga qaytish uchun tavba qilishadi. Bu jarayon orqali ular ruhiy poklanishadi va jannatga kirish uchun tayyorlanadilar. Jazo va tozalanish: Ruhlar jazo olishadi, lekin bu jazolar faqat vaqtinchalik bo'lib tavba orqali ular poklanadilar. Bu faza do'zaxdan farq qiladi, chunki bu yerda ruhlar azob chekishmoqda, lekin abadiy jazo emas, balki vaqtinchalik tozalash jarayoni davom etmoqda. Dante A'rofdagi ruhlarni va ularning tavba qilish jarayonlarini turli darajalarga ajratadi. Bu ruhlar ko'pincha o'zlarini o'limdan oldin ko'rgan xatolaridan pushaymon bo'lib tavba qilishadi. A'rofdagi asosiy darajalar quyidagilardan iborat: Ruhlar shahvoniy ehtiroslar uchun azob chekishmoqda, lekin ular tavba qilib, xudoning rahm-shafqatini kutishadi. Ochko'zlik: Bu ruhlar o'zining ochko'zliklari uchun jazolanishmoqda, ular to'g'ri yo'lni topishga harakat qilishadi. G'azab: G'azabdan aziyat chekkan ruhlar bu yerda tavba qilishmoqda va o'zlarining yovuzliklarini tan olishmoqda. Lanatlanganlar: Ba'zi ruhlar o'zları qilgan yomonliklar sababli, lekin tavba qilib, tozalashni boshlagan ruhlar sifatini tasvirlaydi. A'rofning oxirida, poklanish jarayonini muvaffaqiyatliz yakunlagan ruhlar uchun jannatga yo'l ochiladi. Bu bosqich jannatga kirish uchun tayyorlanishning yakuniy bosqichi sifatida tasvirlanadi. Dante va Vergiliy A'rofdagi jannatga yo'l olish uchun sayohatni davom

ettiradilar, bu ular uchun ruhiy o'sish va mukammallikka erishishning so'nggi bosqichi bo'ladi. Ilohiy komediya asarining uchinchi va so'nggi bo'limi "Jannat"-bo'lib, insonning ruhiy va manaviy mukammallikka erishishi, Xudo bilan birlashishi jarayonini aks ettiradi. Bu bo'limda Dante jannatni, uning tuzilishini va undagi ruhlarning mukofotini tasvirlaydi. Jannat asarning oxirgi qismi bo'lib, unda Dante so'nggi ma'naviy izlanishlarini yakunlab, ilohiy haqiqatni kashf etadi. Birinchi daraja-Xudoning nuri: Jannatning birinchi darjasи bo'lib, bu yerda eng oddiy va to'liq komil ruhlar joylashgan bo'ladi. Ikkinchisi esa Ilm va aqliyatni qadrlovchi ruhlar joylashgan. Uchinchisida Sevgi va fazilat: Sevgi va fazilat darajasida ruhlar, o'zining sevgilarini xudo uchun saqlashgan. Qolgan darajalarda, jannatda mavjud bo'lgan ruhlarning sifatlari va fazilatlari yanada mukammallahadi. Dante jannatda eng baland ilohiy haqiqatni anglash jarayonini o'zining ruhiy sayohatining yakuni sifatida tasvirlaydi. Bu uchrashuvda Dante nafaqat Xudoning nurlarini, balki butun koinot va insoniyatning mukammallik nuqtasini tushunadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Dante o'zining Ilohiy Komediyasida bu dunyodagi tabiat manzaralarini, ranglar xilma-xilligini u dunyo manzaralariga ham olib kiradi va turli ranglarda Do'zax, A'ruf va Jannatni qiyofalarini ko'rsatib bera olgan. Dante ushbu poema orqali Italian tilini rivojlantirib, uni xalqaro adabiy til darajasiga olib chiqdi. Bu asar har bir avlod uchun ma'naviy yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi nodir durdona bo'lib xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Jahon adabiyoti", 2013-yil, 5-son.
2. Dante Alighieri, "Ilohiy Komediya", (1948) O'zbek tiliga tarjimasi, Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti.
3. Mirzaev, H. Jahon adabiyoti tarixi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2010.